



Sherobodga tashrif: Mahallalarda avtoservis, aholi xonadonlari va BSK faoliyati bilan tanishildi




Surxondaryo viloyati hokimi Ulugʻbek Qosimovning Sherobod tumaniga tashrifi Majnuntol mahallasida davom etdi. Dastlab, Kichik biznesni uzluksiz qoʻllab-quvvatlash kompleks dasturi orqali olingan kredit mablagʻlari evaziga “Zokir bobo” oilaviy korxonasi tomonidan tashkil etilgan avtomobillarga servis xizmati koʻrsatish faoliyati bilan tanishildi.

Viloyat rahbari yaratib berilgan imkoniyat va ajratilgan kreditdan samarali foydalanib, yangi ish oʻrinlari yaratgan tadbirkor faoliyatini eʼtirof etdi. Ajratilayotgan resurslardan koʻzlangan maqsad, avvalo, ish oʻrinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish ekanligi taʼkidlandi hamda yoʻlga qoʻyilayotgan har bir loyihaning istiqbolli boʻlishini taʼminlash lozimligi qayd etildi.



Shundan soʻng, ushbu mahallada yashovchi Tursunovlar xonadonida “Sayxunobod” tajribasi asosida amalga oshirilayotgan ishlar koʻzdan kechirildi. Fuqarolar oʻz yashash xonadonlarida milliy hunarmandchilik, xususan, gilam toʻqish, koʻrpa-toʻshak tikish, parrandachilik va oqqand ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻygan hamda tomorqasidan samarali foydalanib kelmoqda. Viloyat rahbari mavjud resurslardan samarali foydalanilayotganligini eʼtirof etib, yangi imkoniyatlar haqida toʻxtaldi. Masʼullarga ushbu tajriba asosida aholini tadbirkorlikka oʻrgatish lozimligi koʻrsatib oʻtildi.





Tumanga tashrif yakunida og'ir hudud sifatida tanlab olingan Dehqonariq mahallasida boshqaruv servis kompaniyasi faoliyatini tashkil etish bo'yicha qilingan ishlar taqdimot qilindi. Mahalla "yettiligi"ning faoliyati yuzasidan axborotlari tinglandi. Tuman sektor rahbarlariga mahallani namunali hududga aylantirish, BSK faoliyatini samarali yo'lga qo'yish bo'yicha vazifalari yuklandi.

